Mahalliylashtirish

https://uzkimyosanoat.uz/oz/activities/localization

“O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan mahalliylashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish dasturlari bo‘yicha
2025 yilda amalga oshiriladigan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT

I. Yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va mavjud quvvatlarni kengaytirish bo‘yicha loyihalar.
O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining 2025-yil
11-martdagi 49-son bayoniga asosan “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan 31 turdagi mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.
Ushbu dasturga kiritilgan 31 ta loyihadan 21 tasining mahalliylashtirish darajasi 100 foiz bo‘lib, mahalliy xomashyolar asosida ishlab chiqarilishi ko‘zda tutilgan.
Jumladan,18 ta kichik hajmdagi yangi loyihalar – “Navoiyazot” AJda sulfat kislota, fersuloksi koagulyanti, “Maxam-Chirchiq” AJda vanadiyli katalizator, o‘rta haroratli katalizator, ruh nitrati, “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” AJda sulfat kislotasi, ammoniy xlorid, sulfat kaliy, “Chirchiq kimyo-industrial texnoparki” negizida yuqori bosimli laminat, katalitik tizimlari, polimer quvurlari, ko‘pikli polipropilendan tayyor mahsulotlar, polikarboksilat, bir martalik tibbiy kiyim, EVA bilan modifikatsiya qilingan poliyetilen plyonka, maishiy va avtomobil kimyoviy vositalari, “Chemistry International” MCHJ QKda paxta sellyulozasi, Gidroksipropilmetilsellyuloza (NRMS).
13 ta ishlab chiqarilishi kengaytirilgan loyihalar – “Navoiyazot” AJ da natriy gidroksid, PVX, tiomochevina, natriy sianid, kalsiy nitrat, poliakrilamid, “Maxam-Chirchiq” AJ da oltingugurt-magniy mikroelementli karbamid, zichligi past bo‘lgan ammoniy nitrati eritmasi, ammoniy karbonat tuzi, “Birinchi rezinotexnika zavodi” MChJ XK da avtomobil shinalari, konveyer lentalari, “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MChJ QK da “A” markali kalsinatsiyalangan soda, “Tashkent Polymer Sintez” MChJ da karboksimetilsellyuloza (KMS).
II. Sanoat kooperatsiyasini kengaytirishga qaratilgan loyihalar bo‘yicha.
Mazkur bayonning 3-ilovasiga asosan 2025-yilda “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan sanoat kooperatsiyasi asosida jami 62 turdagi mahalliy mahsulotlar xarid qilinishi rejalashtirilgan.
Shu bilan birga, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish maqsadida 2025 yilning mart-noyabr oylarida 11 ta kimyo sanoatiga ixtisoslashgan hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida “O‘zkimyosanoat” AJ nomi aks ettirilgan 64 m2 bo‘lgan ko‘rgazma stendi va tarmoq korxonalarning o‘z mahsulotlari bilan faol ishtiroki ta’minlanadi. O‘tkazilidigan hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida ishtirok etadigan yirik va kichik mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalari o‘rnatilib kelishuvlar imzolanadi.
Jumladan, 13-14 mart kunlari Jizzax, 10-11 aprel kunlari Toshkent, 22-23 may kunlari Sirdaryo, 29-30 may kunlari Buxoro va 19-20 iyun kunlari Farg‘ona viloyatlariga, 10-11 iyul kunlari Namangan, 11-12 sentyabr kunlari Navoiy, 25-26 sentyabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 9-10 oktyabr kunlari Xorazm, 16-17 oktyabr Qashqadaryo viloyatlariga, 18-21 noyabr kunlari Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi.


Uzkimyosanoat
Uzkimyosanoat
Uzkimyosanoat


Uzkimyosanoat
Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI


Uzkimyosanoat
"NAVOIYAZOT"AJ
TOMONIDAN ISHLAB CHIQARISHILAYOTGAN
MINERAL O'G'IT MAHSULOTLARI
"NAVOIYAZOT"AJ da
IMPORTDAN XARID QILINADIGAN MAHSULOTLAR
AMMIAKLI
SELITRA


Uzkimyosanoat
TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI
RTM
TOSHKENT VILOYATI
HUDUDIY TARMOQLARARO
ANOAT YARMARKASIGA
XUSH KELIBSIZ
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI